

UDK: 636.32

QORAKO‘L QO‘YLARINING GUL SIFATI KO‘RSATKICHLARI

Nazarova Mohira Azamatovna

Isaqulova Komila Farxod qizi

Mamarahimova Zuxra Ergash qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada qorako‘l qo‘zilarni rangining ifodalanishi va tekisligining turli tipli qo‘zilarda turli darajada namoyon bo‘lishi ushbu xususiyatlar qo‘zilar terisi sathidagi gul shakllarining xilma-xilligidan ham kelib chiqishi bilan taqqoslanganli to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Gul tipi, yassi, qovurg‘asimon, yarim doira, qorako‘l qo‘zilari, qalamgul.

Ключевые слова. Плоский, ягнят, полукруглый, ребристый, кавказский.

Qorako‘l qo‘ylari zot strukturasi turli rang, rangbaranglik, gul tipi, konstitutsiya tiplari va boshqa kategoriyalarning ko‘pligi ularning irsiy imkoniyatlaridan foydalanishning samarali yo‘llarini topishni toqazo etadi. Bunga ushbu imkoniyatlardan to‘laroq foydalanishni ta‘minlovchi urchitish usullarini aniqlash va keng qo‘llash orqali erishiladi.

Bu yo‘nalishda tanlash ishlari, asosan gullarning tip va shakllari, uzunligi, eni, mustahkamligi, joylashish rasmi kabi muhim seleksion belgilar bo‘yicha olib boriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar qanchalik yuqori darajada namoyon bo‘lsa qo‘ylarning nasliy qimmatligi shunchalik ortadi.

Gullarning uzunligi va kengligi (eni). Ushbu ko‘rsatkichlar barcha rangli qorako‘l qo‘ylarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Gullarning uzun va o‘rta kenglikda bo‘lishi (5-9 mm) qo‘ylarning qimmatligini oshiradi. Ushbu ko‘rsatkichlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval
Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning gul uzunligi
bo‘yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul uzunligi, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)		
		uzun	o‘rta uzun	kalta
Yassi	62	55,4±6,22	28,6±5,67	14,2±4,42
Yarim doira qalamgul	72	53,4±5,97	34,4±5,63	14,4±4,18
Qovurg‘a-simon	50	62,4±6,97	28,2±6,85	11,4±4,41
O‘siqgul	42	-	46,9±7,46	51,1±7,44

X- R<0,05

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, turli gul tipiga mansub qo‘zilar gullarning uzunligi va kengligi bo‘yicha ma’lum farqlanish va o‘zgaruvchanlikka ega. Gullarning uzunligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, uzun gulli avlodlar chiqimi bo‘yicha qovurg‘asimon tipli qo‘zilarning yuqori (62,4±6,97%) ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich yassi tipli qo‘zilarda ham etarli darajada yuqori (54,4±6,24) ekanligi aniqlandi. Yarim doira qalamgul tipli qo‘zilarda uning 53,4±5,97 foizni tashkil etganligi qayd etildi.

Bu borada etarli nasliy qimmatlikni ko‘rsatuvchi gullarning o‘rta uzunligiga ega qo‘zilar salmog‘i yassi tipida 28,6± 5,67 foizni, yarim doira qalamgul tipida 34,4±5,64 foizni, qovurg‘asimon tipida 28,2±6,85 foizni tashkil etganligi aniqlandi. O‘siqgul tipli qo‘zilar asosan kalta (51,1±7,44 %) va o‘rta uzunlikdagi (46,9±7,46 %) gullar bilan xarakterlanishi kuzatildi. O‘rta uzunlikdagi gullar bo‘yicha birinchi uch tipdagi qo‘zilar ko‘rsatkichining o‘siqgul tipi ko‘rsatkichidan statistik ishonchli (R<0,05) ustunligi qayd etildi.

2-jadval

Turli gul tipiga mansub qo‘zilarning gul kengligi
bo‘yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul kengligi, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)		
		uzun	O‘rta	kalta
Yassi	50	-	72,4±5,68 ^x	28,6±5,69
Yarim doira qalamgul	50	12,7±3,98	72,4±5,40 ^x	15,9±4,37
Qovurg‘a-simon	50	-	75,0±6,25 ^x	25,1±6,25
O‘siqgul	50	17,8±5,70	46,6±7,44	35,6±7,14

X- R<0,05

Zotdorlikni xarakterlovchi muhim seleksion ko'rsatkichlardan biri hisoblangan gullarning kengligini o'rganish natijalari yassi va qovurg'asimon tiplariga gullarning o'rta (72,4-75,0 %) va kalta (25,1-28,6 %) kengligi, yarim doira qalamgul tipiga mayda ($12,7 \pm 3,98$ %) va o'rta ($71,4 \pm 5,40$ %) kengligi, o'siqgul tipiga qisman mayda ($17,8 \pm 5,70$ %), asosan o'rta ($46,6 \pm 7,44$ %) va kalta ($35,6 \pm 7,14$ %) kengligi xosligini ko'rsatdi. O'rta kenglikdagi gullar bo'yicha tahlillar bu ko'rsatkichning yarim doira qalamgul tipida 5-7 millimetрни, yassi va qovurg'asimon tiplarida 7-9 millimetрни, o'siqgul tipida esa 6-9 millimetрни tashkil etganligini ko'rsatdiki, bu borada yarim doira qalamgul tipi eng optimal, qolgan tiplar esa nisbatan yirikroq gullar bilan xarakterlanishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mamatov B. Sur qorako'l qo'zilarida rang va rangbaranglikning gul tiplari bilan bog'liqligi. CHo'l yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho'llanishning oldini olishning ilmiy – amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019, -49-51
2. YUsupov S. YU., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako'l qo'ylar xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi. «CHo'l – yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari” QCHEIT Institutning 85 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh. 2015 y. 222 bet.
3. Azamatovna, N. M., & Nayimovich, X. J. (2023). Sur rangli qorako'l qo'ylarini gul tiplariga taqsimlanishi. QISHLOQ XO'JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI, 125-131.
4. Nazarova, M. A. (2023). Turli xil gul tipiga mansub sur rangli qo'zilarining terisida gul uzunligi va kengligi ko'rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 92-93.
5. Nazarova, M. (2023). Sur rangli qorako'l qo'ylarining jun-tola qoplami ko'rsatkichlari. Aktualnye problemy pustynnogo jivotnovodstva, ekologii i sozdaniya pastbiщных agrofitotsenozov, 1(1), 94-96.
6. Nazarova, M. A. (2023, January). QORAKO'L QO'ZILARNI TIRIK VAZN KO'RSATKICHLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 602-605).
7. Nazarova, M. A., & Shinayeva, G. H. (2023). QO'YLARNING MUTLAQ VA NISBIY O'SISH KO'RSATKICHLARIGA ETOLOGIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI. Scientific Impulse, 1(9), 430-434.
8. Nazarova, I. B. (2022). A NATIONAL POP ACTOR AND HIS SPEAKING SKILLS. MEJDUNARODNYY JURNAL ISKUSSTVO SLOVA, 5(4).